

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

*M. Begmatov<sup>1</sup>, Q. Begmatov<sup>2</sup>*

### *Annotatsiya:*

Maqola, O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari doirasida, raqamli ta'lim texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri va ahamiyatini o'rganadi. Unda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida, xususan nemis tilida, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi va zaruriyati ta'kidlanadi. Ta'limning turli bosqichlarida axborot vositalaridan foydalanish va dars jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitishning talaba bilimni shakllantirishdagi roli muhokama qilinadi. Shuningdek, maqola innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalarini joriy etishning pedagogik, metodik va texnik jihatlari haqida tahliliy ma'lumot beradi.

*Kalit so'zlar:* raqamli ta'lim texnologiyalari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, xorijiy tillar ta'limi, ta'lim tizimi, zamonaviy o'qitish usullari, nemis tili, ta'lim sifati

*doi:* <https://doi.org/10.2024/4csqvx89>

---

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach barha e'tibor birinchi navbatda ta'lim tizimiga qaratila boshlandi. Bu bejiz emas albatta. Chunki faqat ilm-ma'rifatli xalqgina o'z kelajagini qura oladi. Aynan shu maqsadda ta'lim sohasida ko'plab qaror va farmonlar, qonunlar qabul qilindi. Davlatning, keng jamoatchilikning va hatto yoshlarning ham e'tibori ta'lim tizimiga qaratildi. Bu jarayonlar hozir ham davom etmoqda va bizning taraqqiyot strategiyamizning asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda. Biz buni Prezidentimiz ning quyidagi gaplari misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin "Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir" [1, 14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida talabalarda og'zaki nutqni o'stirish darslarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Ta'limning keyingi bosqichlarida bunday darslar takomillashtirilib boriladi, talabalarga qo'yiladigan talablar ham oshib boradi. Dastlab o'yin tarzidagi darslarda asosan turli rangli rasmlardan foydalanilsa, keyingi bosqichlarda talabalarga muloqotga kirishish o'rgatib boriladi. Nemis tili darslarini tashkil etish, uni samarali usullar bilan olib borish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Talabalar bilan muloqotga kirishish ancha qiyinchiliklar tug'diradi. Jahon ta'limi taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti shu jarayonda joriy etilgan ta'lim tizimining rivoji va takomillashuvi bilan chambarchas bog'liqdir [6, 8].

---

<sup>1</sup> *M. Begmatov, SamDCHTI professori*

<sup>2</sup> *Q. Begmatov, SamDCHTI dotsenti v.b.*

Innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot vositalari asosida ta'lim jarayonini tashkillashtirish o'quv jarayoni mazmuniga, sifatiga va samaradorligiga ma'lum bir darajada ta'sirni ko'rsatadi. Nemis tili ta'limi jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot vositalari: multimedia texnologiyalari, innovatsion pedagogik texnologiya, elektron qo'llanmalar va boshqalarning joriy etilishi, barcha kishilarni bilim olish istagini ma'lum bir miqdorda qondirishda muhim rol o'ynaydi [3, 54]. Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida innovatsion pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagi asosiy masalalarni hal qilish kerak bo'ladi:

1. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish;
2. Uslubiy va pedagogik ta'minotini yaratish;
3. Innovatsion pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun lozim bo'lgan kompyuter va dasturiy vositalar bilan ta'minlash.

Xalqaro kompyuter tarmoqlari, shu jumladan internet texnologiyalarining uzluksiz rivojlanishi natijasida innovatsion pedagogik texnologiyada qo'llab, qulayliklarni hosil bo'lishiga zamin yaratilmoqda. Bu qulayliklar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Innovatsion pedagogik texnologiya zamonaviy kompyuter bilan jihozlangan sinflarda, hamma uchun qulay vaqtda va sharoitda olib boriladi.
2. O'qitish tizimi darajasi, muddati va imkoniyatlari ta'lim oluvchilarning har biri uchun alohida qilib belgilanadi.
3. Ta'lim oluvchilar uchun territoriya va vaqt chegaralanmagan.

Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida innovatsion pedagogik texnologiya samaradorligini oshirish quyidagi shart-sharoitlarga va omillarga bog'liq bo'ladi:

- a) Zamonaviy raqamli ta'lim texnologiyalari bazasini mavjudligi va yetarliligi; b) Internet tarmog'ida ishlashning uzluksizligi; c) Masaofadan bilim olayotgan talabalarning bilim olish ishtiyoqining va o'zlashtirish darajasining yuqoriligi; d) Innovatsion pedagogik texnologiyaga bilimli, malakali va tajribali o'qituvchilarning jalb etilishi; e) Innovatsion pedagogik texnologiyaning kerakli va sifatli o'quv materiallari, elektron darsliklar va o'quv kurslari bilan ta'minlanganligi va ularning yetarliligi; f) Innovatsion pedagogik texnologiyada mashg'ulotlarni sistemali tarzda olib borish.

Innovatsion pedagogik texnologiya uchun avtomatlashtirilgan o'qitish kurslarini yaratish murakkab jarayon hisoblanadi. Buning uchun shu predmet bo'yicha mukammal bilimga ega bo'lishi bilan birga ta'lim jarayonida kompyuter va raqamli ta'lim texnologiyalarining psixologik va uslubiy ta'minoti ham talab etiladi [4, 43].

Innovatsion pedagogik texnologiyada talabalar mustaqil bilim olishlari uchun internet tarmog'iga joylashtirilgan elektron darsliklar, gipermatnli qo'llanmalar, multimedia texnologiyalari, disklar va boshqalardan foydalaniladi. Bundan tashqari talabalar mustaqil bilim olishida, o'tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o'rganuvchi, axborot-ma'lumotli, nazorat qilish dasturlarining qo'llanilishi raqamli ta'lim texnologiyalari asosida masofadan o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi [6, 87].

Nemis tilida muloqot jarayonida turli axborotlar uzatiladi, o'z navbatida axborotni qabul qilib olgan talaba ushbu axborotga o'z munosabatini bildirishi talab qilinadi. Ta'kidlash kerakki, nemis tili darslarida tashkil etiladigan muloqot talabalarning o'quv faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil qilishni, uni izchillik bilan boshqarishni, o'qituvchining talaba bilan, talabaning talaba bilan o'zaro fikr almashuvini hamda anashu murakkab jarayonda talabalarning og'zaki nutq malakalarini shakllantirishni, ularni rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Darsda didaktik soʻzlar oʻyinini tashkil etilishi va uning muvaffaqiyatli oʻtkazilishi talabalar ongli faoliyatining faollashuvi, bilimlarni puxta egallash vositasi sifatida muhim rol oʻynaydi, shuningdek, talabalarning nemis tiliga boʻlgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi [7, 23].

Innovatsion pedagogik texnologiyalar qoʻllangan nemis tili taʼlimi jarayonida bunday oʻyinlarning toʻgʻri va samarali tashkil etilishi darsda koʻrsatilgan rasmlarni nemis tilida nomlanishini, oʻtilgan mavzularni eslab qolish, oʻquv materialini tez oʻzlashtirish, ularni ongli ravishda, yoddan takror aytib berishi orqali xotirani mustahkamlash, oʻrganilgan soʻz va iboralarni oʻz nutqlarida qoʻllash malaka va koʻnikmalarini shakllantiradi hamda maʼlum darajada rivojlantiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

[1]. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. *Erkin va farovon, demokrati Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bagʻishlangan Oliy Majlis palatalarining qoʻshma majlisidagi nutqi.* - Toshkent: «Oʻzbekiston» NMIU, 2016. -56 b.

[2]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori. –Toshkent 2021.

[3]. Avliyoqulova N.X. *Zamonaviy oʻqitish texnologiyalari.* -T., 2001.

[4]. Joʻrayev R.H., Rahimov B.X., Xolmatov Sh. *Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli taʼlimga asoslangan oʻquv-metodik qoʻllanma.* -T.: Fan, 2005. -66 b.

[5]. Zaripov K. *Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.* // *Xalq taʼlimi.* 1997. № 4. 4-12 b.

[6]. Zokirov I. *Taʼlim jarayonigayangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning nazariy-amaliy asoslari.* *Ped. fan. nom. dissertatsiya.* – Toshkent, 2005. – 131 b.

[7]. Лавров О. *Дистанционное обучение: Классификация проблем. Термины и определения.* «Вопросы Интернет - образования», №15, 2003.